

YORDAMCHI SO'Z TURKUMLARI

Atash ma'noli so'zlar yoki ular o'rnida qo'llanilib, ma'lum so'roqlarga javob bo'luvchi va gapda ma'lum gap bo'lagi vazifasida keluvchi so'zlar mustaqil so'zar sanaladi.

Atash ma'nosiga ega bo'limgan, ma'lum so'roqqa javob bo'lmaydigan, gap bo'lagi vazifasida kelmaydigan so'zlar yordamchi so'zlar hisoblanadi.

Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlarni yoki gaplarni bir-biriga bog'lash, ularning ma'nolariga qo'shimcha ma'no yuklash vazifalarini bajaradi.

Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlar bilan qo'shimchalar oralig'ida turgan grammatik vositalardir, yordamchi so'zlarga ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar kiradi.

Ko'makchilar

So'zlarning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatini ifo-dalash uchun ishlatalidigan, ot, olmosh, harakat nomi va sifat-doshlardan keyin kelib, ularni hokim so'zga bog'lashga xiz-mat qiluvchi so'zlar ko'makchilar hisoblanadi.

Ko'makchilar tarixan mustaqil so'zlar bo'lib, hozirgi kunda leksik ma'nosini yo'qotgan va grammatik ma'no ifodalashga o'tgan so'zlardir. Mustaqil ma'nosini yo'qotish darajasiga ko'ra ko'makchilar ikki guruhga bo'linadi:

1. Sof ko'makchilar

2. Vazifadosh ko'makchilar

Leksik ma'nosini tamoman yo'qotib, faqat grammatik ma'no ifodalashga o'tgan ko'makchilar **sof ko'makchilar** deyiladi. Bunday ko'makchilarga *kabi*, *singari*, *ilan*, *birga*, *uchun*, *sa-yin*, *haqida*, *holda* kabi ko'makchilar kiradi. Bunday ko'makchilar urg'u olmaydi, urg'u ko'makchidan oldingi so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Shuning uchun ko'makchi o'zidan oldingi so'z bilan ohang jihatdan bir butunlikni tashkil qiladi, lekin yozuv-da ko'makchilar doimo ajratib yoziladi.

Ba'zan *ilan*, *uchun* ko'makchilari badiiy uslubda **-la**, **-chun** shaklida qo'llanadi va chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

Sof ko'makchilar bilan bir qatorda ayrim so'zlar ko'makchi vazifasida qo'llanadi va ular **vazifadosh ko'makchilar** sanaladi. Vazifadosh ko'makchilar leksik ma'nosini saqlagan holda, gapda grammatik ma'no ifodalash vazifasini bajaradigan, o'rni bilan mustaqil so'z, o'rni bilan ko'makchi bo'lib keladigan so'zlardir. Vazifadosh ko'makchilar ko'makchilashayotgan ot va fe'llardir. Shunga ko'ra bunday so'zlar mustaqil so'z vazifasida ham kelishi mumkin: *Devor usti yomg'irdan iviy boshladi – u kitob ustida uzoq ishladi*.

So'zlar quyidagi turkumlardan ko'makchilarga ko'chadi:

1) Otdan: tomon, tashqari, bo'yi, chamasi, holda, yo'sinda.

2) Sifatdan: sababli, tufayli, qarshi, chog'li, doir, muvofiq, o'zga, boshqa.

3) Fe'ldan: qarab, qaraganda, ko'ra, tortib, degan, deydi-gan, deb, deya, osha, bo'yab, yarasha, qaramasdan, qa-ra-may, qarata.

4) Ravishdan: avval, so'ng, keyin, burun, ilgari, beri, bu-yon, asosan, binoan.

Ko'makchilar bir mustaqil so'zni ikkinchi mustaqil so'zga tobelashtirib bog'laganligi uchun kelishik qo'shimchalari bilan bir xil vazifa bajaradi, shuning uchun sof ko'makchilarni ko'p hollarda kelishik qo'shimchalari bilan almashtirib qo'llash mumkin bo'ladi: *bolalar bog'chasiga hadya qildim – bolalar bog'chasi uchun hadya qildim*.

Ko'makchilar va qo'shimchalar ma'nodoshligi. -dek qo'-shimchasi narsa-hodisa, belgi-xususiyatga o'xshatish ma'nosini ifodalaydi va shu ma'noda **kabi**, **singari**, **yanglig'** ko'makchilari bilan ma'nodoshlikni hosil qiladi.

Masalan: *ark suv quygandek (kabi) jimjit*.

Ko'makchilar vazifasi jihatidan kelishiklarga o'xshaydi. Ayrim hollarda ko'makchi o'rnida kelishik qo'shimchasi yoki kelishik shakli o'rnida ko'makchilar almashib kelishi

mumkin. Ko'makchilar tushum, jo'nalish, o'rinc-payt, chiqish kelishiklari o'rnida almashib kelishi mumkin:

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi yo'nalish ma'nosida **tomon, bo'y lab** ko'makchilari bilan ma'nodoshdir. Masalan: *Dalaga (tomon) ketmoq.*

Jo'nalish kelishigi atalganlik ma'nosini ifodalaganda **uchun** ko'makchisi bilan sinonim bo'ladi. Masalan: *Ukamga oldim – Ukam uchun oldim.*

Chiqish kelishigi qo'shimchasi **uchun** ko'makchisiga sinonim bo'ladi va sabab ma'nosini ifodalaydi. Masalan: *Yaxshi o'qiganidan a'lo baholar oldi – Yaxshi o'qigani uchun a'lo baholar oldi.*

Chiqish kelishigi qo'shimchasi ba'zan **orqali** ko'makchisi bilan ham sinonim bo'la oladi. Masalan: *Radiodan eshitdi – Radio orqali eshitdi.*

O'rinc-payt kelishigi qo'shimchasi **bilan** ko'makchisi bilan sinonim bo'ladi. Masalan: *Qo'l da terdi – Qo'l bilan terdi.*

Ayrim ko'makchilar bog'lovchi vazifasini ham bajaradi, bunday so'zlar ko'makchi-bog'lovchilar deyiladi: bilan, deb, deya.

Umumiy ma'noni qanday ifodalashda kelishik bilan ko'makchi ma'lum darajada bir-biridan farqlanadi. Kelishik qo'shimchasi orqali ifodalangan ma'no aniq, ko'makchi orqali ifodalangan ma'no esa umumiyoq, noaniqroq bo'ladi. Ayniqsa bu farq yo'nalish ma'nosini bildirishda aniq seziladi: *Samarqandga ketdi – Samarqand tomon ketdi.*

Ko'makchilarning qo'llanishi va ma'nolari.

Bosh kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar:

1. *ilan (-ila, -la)* birgalik, vosita, tez boshlanish, payt, ish-harakat obyekti, holat, maqsad ma'nolarini bildiradi.

2. *uchun (-chun)* maqsad, sabab, atash ma'nolarini bildiradi.

3. *kabi, singari, yanglig'*, *misoli* o'xshatish-qiyoslash ma'nolarini ifodalaydi.

3. *sayin* payt, izchillik, davomiylik ma'nolarini ifodalaydi.

4. *sari, yoqalab* yo'nalish ma'nosini ifodalaydi.

5. *sababli, tufayli* aloqadorlik, sabab ma'nolarini ifolaydi.

6. *orqali* vosita.

7. *chog'i, chamasi* taxmin.

8. *osha, bo'y lab* makon bo'y lab sodir bo'lish.

9. *bo'yicha* moslik.

10. *uzra* biror sath bo'y lab yo'nalish ma'nosini.

11. *ichra* biror predmetning ichida sodir bo'lish ma'nosini.

12. *degan* atash ma'nosini.

13. *bo'y i* davomlilik.

14. *haqida (to'g'risida)* fikr mavzusi ma'nosini.

15. *holda (yo'sinda)* holat ma'nosini.

Jo'nalish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar:

1. *tomon* yo'nalish 2. *Qadar* chegara

3. *ko'ra* sabab, ta'kidlash, qiyoslash 4. *Qarshi* zidlik

5. *qarab, qarata* yo'nalish, o'lchov 6. *qaraganda* ta'kidlash, qiyos

7. *qaramasdan, qaramay* ta'kidlash, qiyos 8. *yarasha* moslik

9. *doir* aloqadorlik 10. *asosan, binoan, muvofiq* tayanch ma'nosini ifodalaydi

Chiqish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar: *so'ng, avval, keyin, burun, ilgari, beri, buyon, nari, boshlab, tortib.*

Qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar: *old, ost, ust.*

! *Uchun, bilan, kabi, singari* ko'makchilari qaratqich kelishi-gidagi so'zlar bilan ham qo'llanishi mumkin.

Bog'lovchilar

Gapning uyushiq bo'laklari va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so'zlarga bog'lovchilar deyiladi.

Ukam va men bozorga bordik (gap bo'laklarini bog'lagan)

Qo'ng'iroq chalindi va dars boshlandi (qo'shma gap qismlarini bog'lagan)

Bog'lovchilar gapda qo'llanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

Yakka bog'lovchilar: va, ammo, chunki

Takror bog'lovchilar: yo...yo, yoki.... yoki

Gap bo'laklari va gaplarni qanday bog'lashiga ko'ra bog'lovchilar ikki xil bo'ladi: teng va ergashtiruvchi.

O'zaro teng munosabatda bo'lgan gap bo'laklari va gaplarni bog'lash uchun ishlataladigan bog'lovchilar **teng bog'lovchilar** hisoblanadi. Teng bog'lovchilar uyushiq bo'lak va gaplarni bog'lash bilan birga, ular o'rtasidagi mazmuniy munosabatni ham ro'yobga chiqaradi. Shunga ko'ra ular bir necha guruhlarga bo'linadi:

1) Biriktiruv bog'lovchilari: *va, hamda, bilan, ham*

2) Ayiruv bog'lovchilari: *yo... yo, goh... goh, dam... dam, bir... bir, ba'zan... ba'zan, xoh... xoh*

3) Zidlov bog'lovchilari: *ammo, lekin, biroq, balki*

4) Inkor bog'lovchisi: *na... na*

Sof va vazifadosh bog'lovchilar. Bog'lovchilar ham xuddi ko'makchilar singari sof va vazifadoshga bo'linadi.

Faqat bog'lovchi vazifasini bajaruvchi so'zlar sof bog'lovchilardir: *va, lekin, ammo, biroq*.

Bir o'rinda bog'lovchi, boshqa o'rinda ko'makchi, yuklama, modal so'z vazifasida keluvchi yordamchi so'zlar vazifadosh bog'lovchilar sanaladi.

Masalan, *bilan* (va bog'lovchisi bilan almashtirib bo'lsa, ya'ni teng munosabatli qismlarni bog'lasa, bog'lovchi; bir-biriga tobe munosabatda bo'lgan qismlarni bog'lasa, ko'makchi: *men bilan ukam; qalam bilan yozdi*) ham ko'makchi, ham bog'lovchi;

Ham (va bilan almashtirib bo'lsa, bog'lovchi: *o'zi balo tog'inining boshida o'tirarmish, yoz ham qish*);

na...na ham bog'lovchi, ham yuklama (kesimi tasdiq shaklida bo'lsa, bog'lovchi: *na u gapirdi, na men so'zladim*);

Balki ham modal so'z, ham bog'lovchi: *kuz kelib ishlar ozaymadi, balki ko'paydi* (bog'lovchi);

Balki, ertaga biznikiga kelarsiz (modal so'z);

Ba'zan so'z birikmalari ham bog'lovchilarga sinonim bo'lishi mumkin: *shunga qaramay u kelmadi – ammo (lekin, biroq) u kelmadi*.

Teng bog'lovchilar. Bu bog'lovchilar so'zlarni va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni teng huquqli qilib bog'laydi.

a) Biriktiruv bog'lovchilari – uyushiq bo'laklar va gaplarning o'zaro teng huquqli qismlarini biriktirib keladi. **Va, hamda** sof bog'lovchilari, **bilan** ko'makchi-bog'lovchisi, **-u, -yu, -da** yuklama bog'lovchilari kiradi. Bularidan **ham** bog'lovchi vazifasida kelganda takror holda qo'llanadi. Va bunda vergul takror qo'llanilgan bog'lovchidan oldin qo'yiladi.

Solishtiring: *ham ukamga, ham akamga faxriy yorliq topshirishdi* (bog'lovchi)

Men ham talabaman (yuklama)

Bilan ko'makchisi biriktiruv bog'lovchisi bo'lib kelishi mumkin, bunda uni **va** bog'lovchisi bilan erkin almashtirish mumkin. *Karim bilan Salim biznikiga kelishdi* (*Karim va Salim biznikiga kelishdi*)

-u, -yu, -da yuklamalari bog'lovchi vazifasida kelganda o'zi qo'shilayotgan so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi. Bu yuklama-bog'lovchilar uyushiq bo'laklarni bog'lab

kelganda undan so'ng hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi: *ilm bir daryo – ichi to'l mish dur-u gavhar bilan.* Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lab kelganda undan keyin vergul qo'yiladi: *Quyuq saksovulzor duch kelishi bilan kiyikcha o'zini shu panohga urdi-yu, arang jon saqlab qoldi*

b) **zidlov bog'lovchilar** – o'zaro zidlik munosabatida bo'lgan uyushiq bo'laklar yoki gaplarni bir-biriga bog'lab keladi: **ammo, lekin, biroq, holbuki, lek, vale.**

Balki so'zi ko'pincha zidlov bog'lovchisi vazifasida qo'llanadi, modal so'z vazifasini bajarganda gumon ma'nosini bildiradi va ikki tomonidan vergul bilan ajratiladi:

Masalan: *yomg'irdan so'ng ishlar ozaymadi, balki ko'paydi – bog'lovchi.*

Ba'ki, ertalab o'ziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir – modal so'z.

Yozuvda zidlov bog'lovchilaridan oldin vergul qo'yiladi.

-u, -yu, -da yuklamalari zidlov bog'lovchisi bo'lib kelganda, ba'zan zidlov bog'lovchilar bilan birgalikda qo'llanishi mumkin: *Hamma gullarning hidi bor-u, ammo rayhonning hidi bo'lakcha.*

c) **ayiruv bog'lovchilar** – o'zaro bog'lanayotgan bo'lak yoki gaplardan birini boshqasidan ayirib ko'rsatuvchi bog'lovchilar: **yo..., yo... yo, yoki, goh... goh, dam... dam, ba'zan... ba'-zan, bir... bir, yoxud, yoinki.**

Shulardan *bir... bir, ba'zan... ba'zan* bog'ovchilar vazifadosh bog'lovchi hisoblanib, ular takror qo'llangandagina bog'lovchi vazifasini bajaradi.

Ayiruv bog'lovchilarida vergul quyidagicha qo'llanadi:

1) takror qo'llaniluvchi ayiruv bog'lovchilarining ikkinchi qismidan oldin yozuvda vergul qo'yiladi: *Yo sen kelgin, yo men boraman.*

2) agar bog'lovchi yakka holda ishlatilsa, vergul qo'yilmaydi: *Siz keling yo men boray.*

3) ikki xil bog'lovchi ishlatilsa ham vergul qo'yilmaydi: *Yo siz keling yoki men boray.*

Ayiruv bog'lovchilar qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ularda ifodalangan voqeа-hodisaning galma-gal ro'y beri-shini yoki ulardan faqat bittasining yuzaga chiqishini ta'kidlaydi:

a) *Goh yomg'ir yog'adi, goh quyosh chiqadi* – galma-gal ro'y berishi.

b) *Yo siz kelging, yo men boray* – faqat bittasi yuzaga chiqadi.

d) **inkor bog'lovchisi** – uyushiq bo'lak va gaplarni inkor munosabat bilan bog'laydi. **Na... na** bog'lovchi vazifasida kelganda kesim tasdiq shaklida bo'ladi: *Na o'qiydi, na ishlaydi.*

O'zaro tobe munosabatda bo'lgan gap bo'lagi va gaplarni bog'lash uchun ishlatiladigan bog'lovchilar **ergashtiruvchi bog'lovchilar** sanaladi:

a) **Aniqlov bog'lovchisi** – ajratilgan bo'laklarni ajratilmishga, ergash gapni bosh gapga bog'lab, aniqlab keladi: **ya'ni, -ki (kim), toki.** Ba'zan **-ki** ot turkumidagi so'zlar bilan birga kelib, ta'kidlash, uqtirish ma'nolarini ham bildiradi, bunda u bog'lovchi emas, yuklama hisoblanadi. Solishtiring:

U ko'rdiki, kamchiliklar ko'p (bog'lovchi).

Ko'ksi to'la nuqul ordenki, bir-biridan chiroyli (yuklama).

ya'ni bog'lovchisidan oldin yozuvda doimo vergul qo'yiladi.

b) **Sabab bog'lovchisi** – sabab ergash gapni bog'lab, ular o'rtasidagi sabab-natija munosabatini ifodalaydi: **chunki, shu-ning uchun, negaki, zeroki, shu sababdan, shu sababli, shu tufayli.**

Ba'zan **uchun** ko'makchisi ham shu vazifada qo'llanadi. (*Ular yetib kelsin uchun, biz kutib turdik*)

Yozuvda bu bog'lovchilardan oldin vergul qo'yiladi.

c) **Shart bog'lovchilar** – shart, to'siqsizlik holi hamda ergash gapni bosh gapga bog'lab, ular o'rtasida to'siqsizlik va shart munosabatlarini ifodalaydi: **agar (da), garchi, garchand, gar, mabodo, basharti.**

d) Chog'ishtiruv bog'lovchilari – gap bo'laklari va gaplarni o'zaro bog'lab, ular o'rtasidagi bog'lanishda qiyoslash ma'no-sini ifodalaydi: **go'yo, go'yoki, xuddi**. Masalan: *Siz keldingiz, go'yo kulbamizga nur kirib keldi.*

e) Maqsad bog'lovchisi – gaplarni o'zaro tobelantirib bog'laydi, ular o'rtasidagi sabab ma'nosini ifodalaydi. **Toki** yozuvda bu bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi: *Bu masalani sinfda mu-hokama qilamiz, toki boshqa qaytarilmasin.*

Yuqorida keltirilgan bog'lovchilarning har qaysi guruhiga mansub bo'lgan bog'lovchilar bir-biridan uslubiy xoslanishiga ko'ra farq qiladi.

Biriktiruv bog'lovchisi sifatida oddiy so'zlashuv uslubida ko'proq *ilan (minan)* ko'makchisi ishlataladi. *Va, ham, hamda* yordamchilari esa yozma nutq uslublari uchun xoslangan.

Zidlov bog'lovchisi sifatida so'zlashuv uslubi uchun *ammo, lekin* bog'lovchilarining birikkan holida *ammo-lekin (ammolek)* shakli ko'proq ishlataladi. *Lekin* bog'lovchisining *lek, vale (valekin)* shakllari ham badiiy uslub uchun xoslangan.

Ayiruv bog'lovchilaridan *yoxud, yoinki* yozma nutq uslubi (publitsistik, badiiy uslub) dagina qo'llanadi. Aniqlov bog'lovchilari faqat yozma nutq uslubida qo'llanadi.

Sabab bog'lovchilaridan *chunki, shu sabab, shu tufayli* ko'p-roq yozma nutq uslubida qo'llaniladi.

Shart bog'lovchilaridan *garchi* yozma nutq uslubi uchun xoslangan.

Chog'ishtiruv bog'lovchilaridan *xuddi* uslubiy betaraf, *go'yo* yozma nutq uslubi uchun xoslangan.

Yuklamalar

Yordamchi so'zlar deb yuritiluvchi guruh tarkibida shunday yordamchilar borki, ular so'z va gaplarni bir-biriga bo'lgan sintaktik munosabatini ifodalamaydi. Masalan, *faqat o'qishni o'ylaydi* jumlasidagi *faqat* yordamchisi *o'qishni* so'zini boshqalardan ayirib, bo'rttirib kelyapti.

Demak, so'z yoki gaplarga so'roq, ta'kid, ayirish-chevara-lash, gumon, o'xshatish, inkor kabi ma'nolarni yuklovchi so'z va qo'shimchalarga yuklamalar deyiladi.

Yuklamalarning ko'pchiligi qo'shimcha shaklida, ayrimlari esa so'z shaklida qo'llaniladi. Ana shu belgisiga ko'ra yuklamalar ikki guruhga bo'linadi:

1. So'z yuklamalar: *faqat, hatto, nahotki* kabi.
2. Qo'shimcha yuklamalar: *-mi, -chi, -a (-ya)* kabi.

Eslatma! Aslida ikkinchi guruhdagi yuklamalar qo'shimchalar ekan, ularni so'z turkumlari tarkibida o'rganish kerak, chunki so'z turkumlariga bo'lish uchun u, albatta, so'z maqomiga ega bo'lishi kerak.

Yuklamalarning ma'no jihatdan turlari:

1. So'roq-taajjub yuklamalari: -mi, -chi, -a, -ya. Bu yuklama-lar ishtirok etgan gaplar gapning ifoda maqsadiga ko'ra so'roq gaplarga mansub bo'ladi.

Bulardan *-mi* yuklamasi so'roq va taajjubdan tashqari modal ma'noni ham bildiradi. Bunda u noaniqlikni ifodalaydi: *Uydami, ko'chadami uning uchun farqi yo'q edi* (modal ma'no ifodala-gan). *Uyga vazifani tayyorladingmi* (so'roq ma'nosini ifodalagan).

-chi so'roqdan tashqari buyruq, do'q, iltimos, qistash, ta'kid, uqtirish ma'nolarini ham ifodalaydi: *Qani yur-chi!*

Nega yo'q bo'larkan? Muattar Zokirova-chi? Lobarxon-chi? (so'roq ma'nosini ifodalagan)

-a, -ya yuklamalari ham so'roq va taajjubdan tashqari his-hayajonni va tasdiq hamda ishonchni ham bildiradi: *Qanday chiroyli-ya! Kutubxonaga sen ham borasan-a?* (so'roq)

2. Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari: *nahotki, axir, hatto, (ki)m, -oq (yoq), -ki (kim)* yukamalari kuchaytirish va ta'kid ma'nosini ifodalasa, *tim, liq, lim, g'irt, g'arq, jiqlqa* yuklamalari nutqqa tasviriylik berib, so'z ma'nosini kuchaytirishga xizmat qiladi.

3. Ayiruv-chegegaralov yuklamalari: *faqat, ham, gina (kina, qina), xolos.*

Ham yuklamasi ba'zan bog'lovchi o'rnida ham qo'llanadi (*uni birinchi kursga qabul qilishdi ham stipendiya tayinlashdi*) bu so'z takrorlanib kelganda, fonetik o'zgarishga uchrashi mumkin: *yurtiniyam, xalqiniyam boqdi*.

Faqat, -gina yuklamalari o'rnida **yolg'iz** so'zi qo'llana oladi: *Bu yolg'iz nom, xolos.* Bulardan **faqat** sof yuklama, **-gina (-kina, -qina)** vazifadosh yuklamalardir.

4. Inkor yuklamasi: **hech, sira, na... na. na...na** takro-riy qo'llanadi. Bunda gapning kesimi inkor shaklda bo'ladi: *Na qo'shiq, na kulgi, na churq etgan ovoz eshitildi* – yuklama; *Ko'kda na yulduz bor, na bir tabassum* – bog'lovchi (kesim tasdiq shaklida).

5. Guman yuklamasi bu yuklama **-man, -san** qo'shimchalari qatorida turuvchi uchinchi shaxs qo'shimchasi **-dir** bilan shakl-doshdir, -dir yuklamasi urg'u olmaydi.

O'zbekistonning poytaxti Toshkentdir (bog'lama).

Balki u kelgandir (yuklama).

Guman yuklamasi guman olmoshi tarkibida (kimdir) keluv-chi -dir qo'shimchasi bilan omonimlik hosil qiladi va har ikkisiyam o'zi qo'shilayotgan so'zga guman ma'nosini qo'shishi bilan o'xshaydi, biroq ularning farqli jihat shundaki, guman olmoshi yasovchi qo'shimcha faqat so'roq olmoshlariga qo'shiladi, guman yuklamasi esa, istalgan so'zga qo'shilishi mumkin.

6. O'xhatish-qiyoslash yuklamalari: so'z yoki gapga o'x-sha-tish-qiyoslash ma'nolarini yuklovchi **xuddi, go'yo (ki), xud-di, naq misoli, bamisoli, bamisli** kabi yordamchi so'zlar o'x-shatish-qiyoslash yuklamalari hisoblanadi.

Yuklamalarning uslubiy xoslanishi.

-ku, na... na yuklamalari yozma nutq uslubi uchun xoslangan bo'lsa, qolganlari uslubiy betaraf.

Ham yuklamasi bog'lovchi vazifasida ham qo'llaniladi. Bunday vaqtida qaysi vazifada kelayotganligini farqlash kerak. Ikkita o'zaro teng munosabatga kirishgan so'zlarni bog'lab, **va** bog'lovchisi bilan almashtirib bo'lsa, bog'lovchi vazifasida qo'llangan bo'ladi. Agar **hatto** so'zi bilan almashtirib bo'lsa, yuklama bo'lib kelgan bo'ladi.

Yuklamalardan **-mi, -gina (-kina, qina), -oq, -yoq** o'zi qo'-shilayotgan so'zga qo'shib yoziladi. Qolganlari o'zi birikib kelayotgan so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

! -gina (-kina, -qina) shakllari ot, sifat, ravishga qo'shilib, ma'noni kuchaytirish, erkalash, ta'kidlash uchun ishlatiladi.

Mavzuga oid mashqlar

1-mashq. Gaplar ichida kelayotgan bog'lovchilarni izohlang.

1. Quvnoq va sho'x kuylarga joydir go'zal Vatanim. 2. Keyin Salima va oyisi mezbonlar bilan xayrashib, uylariga qaytishdi. 3. O'zi uddaburon, qo'rmas, biroq o'qishda mazasi yo'qroq. 4. Tanalaridagi ozgina namlik bilan ularga hayot baxsh eta boshlashdi, ammo kunlar o'tgan sari bargchalar kattalashib, ko'proq suv, ozroq oziq-ovqat so'ray boshlashdi.

2-mashq. Matnni o'qib, yuklamalarni va boshqa yordamchi so'zlarni toping.

Bobom g'alatilar-da. Ko'p gapiradigan kishini hech yoqtirmaydilar. O'zлari ham juda qarib qolganlar. Bug'doyrang, cho'tir yuzlarini ajin bosgan, soqollari oppoq, lekin sira tinchimaydilar, qachon qarama biron ish qilib turadilar...

3-mashq. Matndagi yordamchi so'zlarni toping.

Ey farzand, aqli, farosatli va ilm-u hunarli kishilar bilan do'st bo'l. Hunarsiz kishida xosiyat bo'lmaydi. Mehnatdan, ilm-u hunar o'rganishdan uzoqlashma.

E'tibor bergenmisiz yoki yo'qmi, bilmadim-ku, sizning sadoqatda tengsiz do'stingiz bor. Qachon xohlasangiz, siz bilan hamsuhbat bo'ladi. Shod paytingizda quvonchingizga quvonch qo'shadi. G'amgin pallada dardingizni oladi. Bilmaganingizni o'rgatadi.

Adashsangiz, to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Yaqin kishilaringiz burilib ketganda ham u sizni tark etmaydi, xizmati uchun hech nima ta'ma qilmaydi. Yillab unutib, tashlab qo'ysangiz indamaydi. Hatto uloqtirib yuborsangiz ham, arazlamaydi. Tag'in chorlasangiz, yetib kelib, xizmatingizni qilaveradi... bu do'stning nomi – Kitob!

4-mashq. Gaplardagi yordamchi so'zlarni aniqlang.

1. Xalqning sabr-toqati cheksiz emas. U dengizga o'xshaydi: goh to'lib, goh ozayib turadi.
2. Xalqimiz faqat jisman emas, ruhan ham uyg'oq bo'lmos'i darkor. 3. O'z tarixi va ajdodlarini siylagan xalqning kelajagi, albatta, porloq bo'ladi. 4. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan singadi. 5. Aslida inson baxt uchun, dunyo ne'matlaridan bahramand bo'lish uchun tug'iladi. 6. Xizmatkorlar och, lekin boyning oldiga borishga hech kimning yuragi dov bermaydi. 7. Axir, men uning chinakam sehrli qalpoq ekanligini sinab ko'rishim kerak edi-da... 8. Kun botgan, lekin atrof hali yorug' edi. 9. Ali Qushchi usta Temur Samarqandiy bilan xayrashib, Qalandar ikkovlon g'or-dan chiqarkan, go'yo yelkasidan tog' qulaganday yengil tortdi.

5-mashq. Berilgan gaplarda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nolarini izohlang.

1. **Avval** o'yla, **keyin** so'yla. 2. Bu kitob qo'liga tushganidan **keyin** bosh ko'tarmay mutolaaga tushdi. 3. Siz **bilan** hamsuhbat bo'lmasdan **avval** boshqacha xayoda edim. 4. Devor **usti** yomg'irdan iviy boshladi. 5. Mirzo Ulug'bek kechalari shu yerda o'tirib, mutolaa qilishni suyar, suyukli jadvali **ustida** ham shu yerda ishlar edi. 6. Oradan ancha vaqt o'tgandan **keyin** Shiroq o'tovdan chiqdi. 7. O'rtancha botir ikkinchisi kechadagi voqeani aytib, nishona **uchun** tasmani o'rtaga tashladi. 8. Onam stol ustini tartibga solar, karavot **qoshidagi** kiyimlarimni olib, qoziqlarga ilar edi.

6-mashq. Berilgan gaplarda ko'makchilarni toping. Ularni sof va vazifadosh ko'makchilarga ajraring.

Usmon Nosir ham mashhur siymolar kabi juda yoshligidan ko'p ijobiy xislatlarga ega bo'lgan edi. U nihoyatda ziyrak, idrokli, keng mushohadali, o'ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq, mehnatkash edi va shu fazilatlari bilan ajralib turardi. Usmon Nosir o'z ustida ko'p ishlardi... Usmon she'rlarida jimjimadorlik ko'rinas, fikr-tuyg'u sodda til orqali harorat bilan bayon qilinar edi. Asarni o'qishga kirishishingiz bilan ko'z o'ngingizda rangin manzaralar paydo bo'ladi. Qulog'ingiz ostida ajib ohanglar jaranglay boshlaydi... Hech shubhasiz, badiiy adabiyot – dunyodagi sakkizinchimiz mo'jiza!

7-mashq. Ko'makchilarni aniqlang.

1. Fursat g'animatdir shoh satrlar-la bezamoq chog'idir umr daftarin. 2. Juda soz! Albatta, kiyib birini, safarga do'stlar-la men ham chiqaman. 3. Temur tig'i yetmagan joyni qalam bilan oldi Alisher. 4. Yuksak qoyalardan shiddat bilan qo'zg'algan burgut suruvdagi qo'zichoqni ildi-yu ketdi. 5. Qog'oz oq bo'lgani uchun unga so'z bitadilar. 6. Uni bir joyga o'tqizib, kuydirilgan namat bilan qonini to'xtatdilar. 7. Yuz bergen tabiiy ofat tufayli uyimizning hamma yog'i buzilib-yorilib ketib, yashash uchun mutlaqo yaroqsiz holga kelib qolgandi. 8. Kimki tong ila tursa, Mushkul ishlar bitgay. 9. Shundan beri inson tinmayin shu yer uzra ter to'kar hamon. Yerni go'zal qilgani sayin go'zal bo'lar o'zi ham inson.

8-mashq. Ko'makchilarni aniqlang.

1. Barchasidan qovun soz, Paykal uzra dumalar. 2. Halollik buyuklik sari dastlabki qadamgina bo'lib qolmay, buyuklikning ayni o'zidir. 3. Qalam-la men to'qiyman qo'shiq, U – insonga, elga xizmatim. 4. Abdulla Oripovga adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun 1989-yili O'zbekiston xalq shoiri unvoni berildi. 5. Bu to'g'rida maktab direktori, o'qituvchilar gapisrsa, o'zimga olmas edim. 6. Saida bu haqda bundan ortiq gapirishni lozim ko'rmadi. 7. U hamma qishloq bolalari kabi yoshlikdan mehnatga kirishgan bo'lsa-da, ammo o'yingga ham vaqt topar edi. 8. Shunday qilib, ish borgan sari katta bo'lar va ish katta bo'lgan sayin Sayid Jalolxonning kallasi og'irlashar edi. 9. To'g'ri so'z o'z egasini najot sari yetaklaydi. 10. Ba'zilar ovqatlanish uchun yashaydilar, men esa yashash uchun ovqatlanaman. 11. Pokiza

kishi hamisha shodlik ustida, gunohkor esa g'am va qayg'u ostida bo'ladi. 12. Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo.

9-mashq. Bilan bog'lovchi vazifasida kelgan o'rnlarni aniqlang.

1. Millat tushunchasi hamisha Vatan bilan yonma-yondir, misoli jism-u jondir. 2. Endi buva bilan nevara teng odamday gaplashishadi. 3. Odam odam bilan tirik. 4. Yer bilan suv egizak, bir-birisiz yashay olmaydi. 5. Eshon bilan Kifoyatxon qulay bir joyni topib, bularni kuzatishardi. 6. Anavilarning fojiasi shuki, ular baxt bilan baxtsizlikni farqlay olmaydi. 7. Jiyda esa bahor paytlari butun shaharni o'zining hidi bilan to'ldirardi. 8. Mehmonlarga non bilan tuz tutdilar. 9. Pirimqul Qodirov bilan Odil Yoqubov xonaga kirib keldilar. 10. Ustoz bilan shogird ko'rishib bo'lguncha, olisroqda iymanib turgan Qalandar bilan Muhammad Xisrav ham yaqinroq kelib, salom berishdi.

10-mashq. Gaplarni o'qing, bog'lovchilarni topib, ularni izoh-lang.

1. Yupanch topdingmi dunyoga kelib, ustozi yo shogirddan, yoki tengdoshdan. 2. Nozimaxon goh mashinkasini, goh tikuv mashinasini yurgizib allamahalgacha ishlab o'tiribdi. 3. Matniyozi xotini nima desa shuni qilardi-yu, lekin ich-ichidan unga achinib qo'yardi. 4. Men ham eshitgan va ko'rganimni aytaman-da, jo'ra. 5. Humoyun va Hindol ammalariga yelkalarini berib ko'rishar ekanlar, yosh ayollar ularga bosh egib, ta'zim qildilar. 6. Mirzaqul yerga qaradi va boshiga telpagini qaytadan kiydi. So'ng nimanidir aytmoqchi bo'lib taraddudlandi-yu, lekin aytmay, indamay qoldi. 7. Ilm ahlining g'animplari bo'lmish mustabid shohlar kelib ketaverar, ammo bu maskan, bu zahmatkash xalq abadul-abad hayotdir.

11-mashq. Gaplarni o'qing, bog'lovchilarning vazifasini aniqlang.

1. O'zi to'rt tarafi ko'z ilg'amaydirg'an darajada katta va sayhon bir yer ekan. 2. U seskanib tushdi, chunki chol ro'parasiga kelib qolgan edi. 3. Ba'zan uloqni to'dadan olib chiquvchi ham ko'rinish qoladi, biroq uning ketidan uloqchilar chug'urchuqday yopirilishib, o'n-o'n besh qadamda tutib oladilar. 4. Nega kerak gapning nega, negasi, yo shoir, yo marhum buning egasi. 5. Qancha yo'llar bosdim, gohida toldim, Lekin xalq nomiga yuqtirmadim gard. 6. Ko'klamning bulutli, ammo yog'insiz bir kunida to'y bo'ldi. 7. Ularda dard va iztirob ne qilar, Ular faqat kishnab yurgan yilqilar. 8. Yo'qolgan moddiy boylikning o'rnini to'ldirish mumkin, lekin ma'naviy boylikdan judo bo'lish - fojia. 9. Menda na bol tayyorlamoq mashaqqati, na uya solmoq kulfati bor.

12-mashq. Bog'lovchilarni aniqlang.

1. Uning o'g'illari: Bektosh va Hoshim maktabda o'qiydi. 2. Qimmat ham sehrgar kampirning uyiga kelib qolibdi. Ammo u kampirga biror og'iz ham shirin so'z so'zlamabdi, aytgan ishlarini qilmabdi. 3. Avvalo shuki, kovush tikishga na charm bor, na sirach, na mix, na lok. 4. Bu qizcha shu topda undan jon so'rasa, balki ayamasdi. Lekin non qani? 5. U rostini gapirib bergani uchun onasi urishmadi, balki yolg'on gapirish odobli bolaning ishi emasligini aytди. 6. Ko'ksimdagagi sevinch shuncha zo'r, Dumalayman maysada tanho. Goh tentirab ketaman uzoq, Yerni quchib o'paman goho. 7. Biz shunday ma'naviy muhit yaratishimiz kerakki, yurtimizning har bir burchagida, barcha shahar va qishloqlarimiz qiyofasida Vatandan faxrlanish hissi ko'zimiz-u qalbimizni yashnatib tursin.

13-mashq. Balki so'zi bog'lovchi vazifasida kelgan gaplarni daftaringizga yozing.

1. Yomg'irdan so'ng Olimjon brigadasidagi ishlar ozaymadi, balki yana ko'paydi. 2. Xalqni qo'rqtgan emas, balki xalq dardiga sherik bo'lgan odam marddir. 3. Sobir nafaqat o'qishda, balki sportda ham eng faol o'quvchi. 4. Balki ertalab o'ziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir. 5. Inson go'zalligi bilan emas, balki mehnati bilan kamol topadi.

14-mashq. Inkor bog'lovchilarini aniqlang.

1. Na qo'shiq, na kulgi, na churq etgan ovoz eshitiladi. 2. Na kampirning, na Qoratoyning yupatishlari kor qildi. 3. Cho'lquvarlarni na issiq, na suvsizlik yenga oladi, balki ular o'z jasorat-lari, mehnatlari bilan tabiatni zabit etadilar. 4. Na eshikni, na derazalarni ochib

bo'lardi. 5. Ko'ngil, sen munchalar nega Kishanlar birla do'stlashding? Na faryoding, na doding bor, Nechun sen muncha sustlashding? 6. Na oltin, na javohir edim... Armonli bir shoir edim. 7. Mana, hozir yana o'sha qasri oliyda o'tiribdi, lekin qalbida na bir qo'rquv bor, na bir hayajon! 8. Sharifning haqiqat ufurib turgan gaplariga qarshi na Nozima bir narsa deya oldi, na Nabijon. 9. Bepoyon dasht bag'riga yashiringan chashmani na Qahramon, na Bahrom topa oldi. 10. Sen na boy erursan va na kambag'al, yashaysan bir-biring aldab galma-gal. 11. Hamid yaratmoqchi bo'lgan yangi paxta navi haqida hozircha na institut direktoriga, na do'sti Umidga hech narsa dedi. 12. Bozorvoy ming qo'yli boylar sirasiga kirsa-da, na uyida tayinli qozon qaynar, na eshididan birov kirib chiqar edi. 13. Go'ringda o't yongur amirlar xudbin, Bilganlar na nomus, na vijdon, na din. 14. Javob ololmadi hech kim ham, zotan, Na sulton, na gado, na shoh, na faqir.

15-mashq. Ergashtiruvchi bog'lovchilarni topib, izohlang.

1. Qo'rkoq do'st dushmanidan xavflidir, chunki dushmanidan ehtiyyot bo'lasan, ammo do'stga ishonasan. 2. Taraqqiyot tasodif emas, balki zaruriyatdir. 3. Abdumalik ota nevaralarini yeishar deb, har bahorda ko'chat ekadi. 4. Vatanimiz poytaxtida, ya'ni Toshkentda diqqatga sazovor joylar ko'p. 5. Badantarbiya bilan mashg'ul bo'lmay qo'ygan kishi tez-tez kasalga chalinadi, chunki harakatsizlik natijasida kishining a'zolari zaiflashadi. 6. Bu xabar unda hech qanday norozilik tug'dirmadi, chunki ertaroq qaytishga juda ham orzumand emas edi. 7. Nega u siznikida yuradi? – Negaki boradigan joyi yo'q. 8. Bunday mehnatkashni ko'rmagan dunyo, Chunki u asrimiz farzandi erur. 9. Agar do'stlikni ham bilmasa, asli, Kimga kerak, axir, inson degan nom!

16-mashq. -u, -yu, -da, na...na yordamchilarining qaysi o'rinda bog'lovchi, qaysi o'rinda yuklama vazifasida kelganini aniqlang.

1. Namiqqan shuvoqlar oldin tutab yaxshi yonmasa ham, keyinroq chars-churs uchqun sochdi-da, axiyri gurillab ketdi. 2. Biladilar-da bu kishi. Yovlar bilan olishgan-a! 3. Mana endi daradan chiqar-chiqmas, uning isitmasi ko'tarilib, ko'z oldini g'alati tuman qoplab oldi-yu, hamma narsa tushday tuyula boshladi. 4. Men-ku yolg'iz edim, na otam, na onam, na oilam bor. 5. Na so'ngiga yetoldi ishing, na dunyoni anglab ulgurdi. 6. Dunyoga to'zg'iding bamisoli par, na saljuq, na Chingiz qilmadi shafqat. 7. Hozir kelaman dedim-u loy kechib uyga yugurdim. 8. Bepadarlik odamni dindan ham chiqarar ekan-da, tavba 9. Singdi ruhimizga mangu barhayot Alisher she'ri-yu Pushkin bayoti. 10. Qiz erta-yu kech soatiga qaraydi, daqiqalar sanaydi. 11. Majlis ertaga qoldirilmaydi-yu. 12. Nosir Oxun eski bo'lsa-da, ozoda libosda edi. 13. Choy qaynatib ichishni-da unutdi. 14. Birrov kirdi-da, chiqib ketdi.

17-mashq. Gaplarni o'qing, yuklamalarni topib, ma'nosini izohlang.

1. U chaqqon harakat qilarkan, a'zoyi badani bilan terlab ketgan, faqat buni o'zi payqamas, hatto bir so'zni takrorlardi: «Menga desa otib yubormaydimi?» 2. Haqiqatni, faqat haqiqatni aytaman deb ont iching! 3. Ulardan faqat birga oldirilgan suratgina yodgor qoladi, xolos. 4. Bu haqda Shahnozagina biladi. 5. Keksa donishmandning soch-soqoligina emas, qosh-kipriklari, egnidagi chakmoni – hammasi qorday oppoq edi. 6. Suvchilarning yuzin silab o't, Faqat yaxshi tilak tilab o't. 7. Hatto zeb-ziynatni yulqib ziyoda, haykal ham qo'yingiz bamisli xayol... 8. Xuddi o'zing kabi o'sar ko'chating. 9. «O'lса о'lgандир, бunga нима janjal!» – deb qo'ysi tag'in birov 10. Nolimayman na kelajak, na o'tmishimdan.

18-mashq. Yordamchi so'zlarni aniqlang.

So'z yoki so'zlar orqali ifoda etiladigan fikr gapdir. Boshqacha aytganda, uni mantiq ipiga tizilgan so'zlar marjoni deyish ham mumkin. Bu marjon mazmun yuzakiligi yoki teranligiga qarab, ko'zmunchoqlar tizimi yoki bir shoda marvarid ham bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, eng qadimgi turkiy so'zlar qisqa, lo'nda – bir bo'g'inli bo'lgan: *bosh, qosh, ko'z, qo'l, kul, bor, yot, o't* va hokazo. Boshqacha aytganda, ajdodlarimiz bir so'z ila fikrni to'la ifodalay olganlar va bu xislat biz, avlodlarga to hanuz meros bo'lib kelayotir. Masalan,

«kel» degani buyruqdan tashqari, o'zi tomonga chorlash ma'nosini ifodalasa, «ket» deganda o'zidan uzoqlashtirish ma'nosini bildirgan.

Xuddi so'z kabi gapning ham turi va xili, matndagi o'rniqa qarab ma'nolari ko'p.

19-mashq. Ko'makchilarni toping.

Yaxshi kitob muallifning odamzod uchun atalgan tortig'idir. 2. Ilm va dinning mashhur kishilari o'z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. 3. «Ey farzand, ilm olmoqning fazilatlari ko'pdirkim, ilm orqali hayoting farog'atda, yurish-turishing hurmatda bo'lur». 4. Sabrli bo'lish kabi fazilatlarni o'zingizda mujassam eting. 5. Imonli kishi aql-zakovat sohibi bo'lish bilan birga insoniy, ijtimoiy muammolarni hal etishda faol ishtirok etadi. 6. Insof va insofli bo'lish singari tushunchalar ayrim diyonatsiz odamlar uchun qadr-qimmat siz bo'lib qolgandek ko'rindi. 7. Vaqt o'tgan sari odam yaxshilik, ezgulik kabi umr ishlariga tashna bo'lib yashaydi. 8. Xudbin odamadolat yuzasidan emas, shaxsiy manfaatlari, injiqligi va xudbinligidan kelib chiqib harakat qiladi.

20-mashq. Gaplardagi ko'makchilarning qaysi qo'shimcha bilan sinonim ekanligini aniqlang.

1. Zarina so'zlar, sakkiz o'g'il o'rtasida yolg'iz qiz bo'lgani uchun erkakshoda bo'lib o'sgandi, hech narsadan tap tortmay so'zlayerardi ham. Gap orasida menga qarata: «Sen o'lgur menga bugundan boshlab ikki tomonlama yaqin bo'lib qolding», deb yubordi. 2. Sizning sog'ligingiz, sizning baxtingiz uchun gapirsak arziyi. 3. Mening ko'nglim sezgan edi, shu sababli tushlikni chala-chulpa qilib, uy tomon yugurgan edim. 4. Palataga kirib borganim sari meni vahima bosardi. 5. Siz go'daklardek pishillab uxlardingiz, tim qora va quyuq sochlaringiz yostiq ustida yoyilib yotardi. 6. Voqealar tizimidan sal ilgarilab ketdim shekilli, bu haqda maktubimning keyingi sahfalaridan birida alohida to'xtab o'taman. 7. Kasbim sharofati bilan baribir qaysi jumlangiz yolg'on ekanini gapingiz ohangidan bilib olaman. 8. Ona urug'im haqida boshqa narsani bilmayman, bilganim shuki, onamlar siz kabi bo'lishni xush ko'radilar.

Mavzuga oid testlar

1. Qaysi gapda sof ko'makchi ishtirok etmagan?

- a) Toshbaqa uyasi tomon sudraldi.
- b) Vatan ham ona kabi qadrlidir.
- c) Yangiliklarni xat bilan ma'lum qilib turamiz.
- d) Bu uchun hammamiz ancha gap eshitamiz.

2. Bilmagan odam uni tirikchilik vajidan qiynalib qolgan gumon qiladi. Ushbu gapdagi ko'makchini toping.

- | | |
|-----------|-------------------------|
| a) qolgan | b) vajidan |
| c) uni | d) ko'makchi berilmagan |

3. Ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi so'zni toping.

- a) sayin
- b) qarab
- c) sari
- d) uchun

4. Vazifadosh ko'makchi ishtirok etgan gapni aniqlang.

- a) Kitob stolning ustida turibdi.
- b) Qirning ustida lolalar ochilgan.
- c) Qo'ng'iz yaproqning ustida o'rmalardi.
- d) U kechgacha ish ustida o'tirdi.

5. Qaysi gapda bilan vazifadosh bog'lovchi bo'lib kelgan?

- a) Ishchi bilan dehqonning mehnati teng emas.
- b) Kechasi bilan yig'lab chiqdi.
- c) Lobar bilan Buxoroda tanishgan edim.
- d) Aql bilan qul bo'lar ozod.

6. Vosita ma'nosini ifodalagan bilan ko'makchisi qaysi qatorda mavjud?

- a) Muhayyo bu bolaga havas bilan qaradi.
- b) Dehqon bilan ishchining mehnati baravar emas.
- c) Yuragim bir ajib his bilan to'la edi.
- d) Ismat bobo hassasi bilan eshikni ochib kirib keldi.

7. Maqsad ma'nosini anglatgan uchun ko'makchisi qatnashgan gapni aniqlang.

- a) Anvar yuzidagi kulgini yashirish uchun yerga qaradi.
- b) Daftarni ukam uchun keltirdim.
- c) G'o'za erta ekilgani uchun hosil mo'l bo'ldi.
- d) Yig'ilish uchun imkon yaralmadi.

8. Quyidagi gaplarning qaysi birida jo'nalish kelishigi qo'shimchasini ko'makchi bilan almashtirsa bo'ladi?

- a) Olimga vijdon ham o'tkir ilm kabi zarur.
- b) Qarab tur, seni otangga chaqmasammi!
- c) Men o'zimning kimligimni sizga aytdim.
- d) O'tgan kunlarni bir esingizga oling, qanday zamonlar edi.

9. Vosita ma'nosini ifodalaydigan ko'makchi qaysi qatorda qo'llangan?

- a) Muhayyo bu sodda, beg'ubor bolaga havas bilan qaradi.
- b) Haligacha majlis uchun xonamiz yo'q.
- c) Xatni pochta orqali jo'natdim.
- d) Avtobus shahar markaziga kirib borgani sari yo'lovchi ko'payar edi.

10. Atalganlik ma'nosida qo'llangan ko'makchini toping.

- a) Nodira ukasi uchun qalam sotib oldi.
- b) Onajonim hammamiz uchun birdek aziz.
- c) Toshkentga akam bilan birga bordik.
- d) O'qish uchun keldim.

11. Ergashtiruvchi bog'lovchi qatnashgan gapni aniqlang.

- a) Qishda va yozda bir xil kiyimda.
- b) Salim uni ko'rdi, biroq tanimadi.
- c) Alisher Navoiy Astrobodga jo'nab ketdi, ammo xalq uni hech qachon unutmadi.
- d) Bizda yaxshi rahbar eng yaxshi tarbiyachi bo'lishi kerak, chunki tarbiyaning ham, rahbarlikning ham markazida odam turadi.

12. Qaysi gapda -u (-yu) yuklamasi vazifadosh biriktiruv bog'lovchisi bo'lib kelgan?

- a) Necha marta uchrashay dedim-u, vaqtim bo'lmadi.
- b) Oynisa G'ulomjonni ko'rди-yu, unga tomon borishga jur'at etolmadi.
- c) Nasimjon o'rnidan turdi-yu, eshik tomon yurdi.
- d) Odamlar kelayotibdi-yu, siz ketasizmi?

13. Axir Marg'ilonda bizning ham shunday kelinimiz bor ekan-u, bilmay yurgan ekanmiz-da. Gapdag'i yuklamalar sonini aniqlang.

- a) 3 ta b) 4 ta c) 2 ta d) 5 ta

14. Tiq etgan ovoz eshitilmas, faqat shamolda tebrangan daraxt barglarigina shitirlardi. Ushbu gap tarkibida yuklamaning qaysi turi qo'llangan?

- a) so'roq yuklamalari b) ta'kid yuklamalari
- c) ayiruv yuklamalari d) kuchaytiruv yuklamalari

15. Betobligini ko'riboq sezgan ekansan, shifoxonaga yuborsang bo'lmasmidi axir!

Ushbu gapdag'i yuklamalar miqdorini aniqlang.

- a) 1 ta b) 2 ta c) 3 ta d) 4 ta

16. -gina qo'shimchasi urg'u olmagan gapni toping.

- a) Yakshanba kunlarigina Mehri buvisinikiga borib turardi.
- b) Berilgan barcha gaplarda urg'uli qo'shimcha.

- c) Zumradgina kimsasiz o'rmonda qo'rqqanidan qaltiray boshladi.
d) Oyoqqinang og'ridimi, bolam?

17. Ayiruv-chegegaralov yuklamasi qo'llangan gapni aniq-lang.
a) O'zi ham ko'r kamgina.

- b) U sinfdagina emas, butun maktabda eng yaxshi o'quvchi edi.
c) Ular pastakkina eshik peshtoqida to'qnash kelishdi.
d) Zumradginam dalada qolib ketibdi.

18. Qaysi qatorda bilan ko'makchisi ishtirok etgan?

- a) Shudgorda Jannat xola bilan Zebixon qoldi.
b) Ayvonda Jannat xola bilan Nizomjon gaplashib o'tirishardi.
c) Hayo bilan odam tirikdir.
d) Keyinroq xotini bilan qizini ko'chirib kelib, uy-joy ham qilib olsa!

19. Faqat vazifadosh ko'makchilar berilgan javobni toping.

- a) kabi, singari, yanglig', zero
b) ustida, ichida, qoshida, tomon
c) bilan, uchun, sari, sayin
d) ila, mabodo, nainki, nechun

20. Qaysi qatorda vazifadosh ko'makchi otlashgan so'z-dan keyin qo'llangan?

- a) Yomonlarning qoshida yalinish yaxshilarning ishi emas.
b) Insonni fe'l-atvoriga qarab unga baho berishadi.
c) Bitmas-tuganmas bilimning tagida mashaqqat yotadi.
d) To'ydan keyin nog'ora chalmoq nodonlar ishi.

21. 1. Kampir ba'zan mudrar, ba'zan o'gli bilan nima-lar-ni-dir gaplashardi. 2. Ba'zan yaxshilik maqsadida aytilgan yolg'on so'z ham ziyon emas. Ushbu gaplardagi ba'zan so'zini izohlang.

- a) har ikkalasida ham ravish
b) har ikkalasida ham ayiruv bog'lovchisi
c) 1-gapda ayiruv bog'lovchisi, 2-gapda ravish
d) 1-gapda ravish, 2-gapda ayiruv bog'lovchisi

22. Yuklama qatnashgan gapni toping.

- a) Vatanimiz poytaxtida, ya'ni Toshkentda diqqatga sazovor joylar ko'p.
b) Abdumalik ota neveralarim yeyishar deb, bahorda ko'chat ekadi.
c) Bu xabar unda hech qanday norozilik tug'dirmadi.
d) Ahmad bu gapni sira kutmagandi, tok urgandek eti jimirlashib ketdi.

23. Faqat sof ko'makchilar berilgan qaturni toping.

- | | |
|-----------------------|---------------------------|
| a) sayin, uzra, qadar | b) kabi, bo'ylab, muvofiq |
| c) uchun, doir, so'ng | d) sari, yarasha, tomon |

24. Faqat vazifadosh ko'makchilar berilgan qaturni toping.

- a) tomon, haqida, ko'ra b) so'ng, singari, bo'ylab
c) tufayli, avval, to'g'risida d) qarab, keyin, ust

25. 1. Devor usti yomg'irdan iviy boshladi. 2. Kitob ustida uzoq ishladi. 3. Nosir o'z ustida ko'p ishlardi. Ushbu gaplardagi usti so'zi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

- a) 1-va 3-gaplarda vazifadosh ko'makchi, 2-gapda mustaqil so'z.
b) 1-va 2-gaplarda mustaqil so'z, 3-gapda vazifadosh ko'-makchi.
c) 2-va 3-gaplarda vazifadosh ko'makchi, 1-gapda mustaqil so'z
d) 2-va 3-gaplarda mustaqil so'z, 1-gapda vazifadosh ko'-makchi.

26. Qaysi gapda ham yuklamasi bog'lovchi vazifasida qo'l-langan?

- a) Sekin unga yaqin bordim: bu manzara bizning ko'ngilga yaqin-da, qadrdon!
b) Men ham eshitgan va ko'rganimni aytaman-da jo'ra
c) O'zi balo tog'inining boshida o'tirarmish, kun-u tun, yosh ham qish.

d) Barcha javoblarda yuklama sifatida qo'llangan.

27. Qaysi gapda teng bog'lovchi qo'llangan?

a) Haqiqat tikanli gulga o'xshaydi, shuning uchun ham u hidlashni bilmaganlarning burniga sanchiladi.

- b) El netib topgay menikim,
Gar o'zimni topmasam.

c) Menga Pushkin bir jahon-u,
Menga Bayron bir jahon.
Lek Navoiydek bobom bor,
Ko'ksi qalqon o'zbegim.

d) Barcha gaplarda teng bog'lo-

28. Qaysi javobda vazifadosh bog'lovchi berilgan?

- a) Yer bilan suv egizak, bir-birisiz yashay olmaydi.
 - b) Pokiza kishi hamisha shodlik ustida, gunohkor esa hamma vaqt qayg'u ostida bo'ladi.
 - c) Balki, ertalab o'ziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir.
 - d) Go'yo sharpa o'tgandek bo'ldi.

29. Yana ular futbol haqida nazariy bilimlarga ega bo'lishimizni talab qiladilar. Ushbu gapdagi ko'makchining ma'no turini belgilang.

- a) maqsad ma'nosi b) yo'nalish ma'nosi
c) chegara ma'nosi d) fikr mavzusi ma'nosi

30. ko'ra ko'makchisi asosan qaysi kelishikdagi so'z bilan keladi?